



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 11 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 11

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№11 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-11>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Азизов Аброржон Салиджанович НАЛОГОВЫЙ МОНИТОРИНГ КАК АЛЬТЕРНАТИВНАЯ ФОРМА НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ И ОТЛИЧИЯ ОТ НАЛОГОВЫХ ПРОВЕРОК.....	5
2. Norboyev Bobur Aliqul o‘g‘li O‘ZBEKISTONDA YER KADASTRING HUDUDIY RIVOJLANISH TARIXI.....	13
3. Каримов Темур Мамарахим ўғли ЮРИДИК ИХТИСОСЛИК БЎЙИЧА ИШ СТАЖИНИНГ СУДЬЯЛИК ЛАВОЗИМИГА НОМЗОДЛАРГА ҚЎЙИЛГАН ТАЛАБЛАРДАН БИРИ СИФАТИДА.....	22
4. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich HUQUQNI MUXOFAZA QILUVCHI ORGANLARIDA KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH DASTURINI ISHLAB CHIQUISH VA UNI TASHKIL ETISH TARTIBI.....	30
5. Nurumov Dilshodbek Djumabayevich ADVOKATNING ISHONCH BILDIRUVCHI SHAXS (HIMOYA OSTIDAGI SHAXS) BILAN MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	40
6. Сафаев Мансурбек Илхомжонович ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ БЎЙИЧА ХУҚУҚИЙ АСОСЛАР.....	48
7. Зокиров Шерзод Илхом ўғли ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИДА МУРОЖААТЛАР БИЛАН ИШЛАШ ТАЖРИБАСИ ВА УНИ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИККА ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ.....	57
8. Xudaykulov Feruzbek Xurramovich JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH ALGORITMI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	65
9. Мухитдинов Фахритдин Мухитдинович МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ЖИНОЯТЧИЛИКНИНГ ПРЕВЕНТИВ ЖИХАТЛАРИ.....	76
10. Najimov Miratdiyin Shamshetdinovich O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA OILAGA VA YOSHLARGA QARSHI JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING IJTIMOIY XAVFLILIGI.....	90
11. Файзуллаев Шавкат Файзуллаевич ИШНИ СУДГА ҚАДАР ЮРИТИШДА ВИДЕОКОНФЕРЕНЦАЛОҚА РЕЖИМИНИ ҚЎЛЛАШ.....	99
12. Nuratdinov Srajatdin Kamalatdinovich XORIJ DAVLATLARINING OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA TAJRIBASI.....	109



Nurumov Dilshodbek Djumabayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori vazifasini bajaruvchisi,
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
E-mail: d.nurumov@tsul.uz

ADVOKATNING ISHONCH BILDIRUVCHI SHAXS (HIMOYA OSTIDAGI SHAXS) BILAN MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

For citation: Nurumov Dilshodbek Djumabaevich. DISTINCTIVE ASPECTS OF THE LAWYER'S RELATIONSHIP WITH THE CLIENT (PERSON UNDER PROTECTION). Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17637218>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyati, ularning o'zaro huquq va majburiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi milliy va xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganilib, ishonch bildiruvchi shaxs bilan advokat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning nazariy-huquqiy asoslari tahlil etilgan. Maqolada ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlarini himoya qilishdagi etik va huquqiy cheklovlar, shuningdek, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi ishonchga asoslangan huquqiy munosabatlarning samaradorligi, ularning o'zaro huquqiy tengligi hamda advokatlik sirini ta'minlash mexanizmlari yoritilgan hamda advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: advokat, ishonch bildiruvchi shaxs, advokatlik siri, huquqiy munosabat, ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlari, yuridik yordam, manfaatlar to'qnashuvi.

Нурумов Дилшодбек Джумабаевич,
Исполняющий обязанности профессора Ташкентского
государственного юридического университета,
Доктор философии (PhD) по юридическим наукам
E-mail: d.nurumov@tsul.uz

ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ АДВОКАТА С ДОВЕРИТЕЛЕМ (ЛИЦОМ, НАХОДЯЩИМСЯ ПОД ЗАЩИТОЙ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы сущность и содержание правовых отношений между адвокатом и доверителем, их взаимные права и обязанности. Проведено сравнительно-правовое исследование национальных и международных нормативно-правовых актов, регулирующих адвокатскую деятельность, а также раскрыты теоретико-правовые основы

отношений между адвокатом и доверителем. В статье рассмотрены этические и правовые ограничения, возникающие при защите интересов доверителя, механизмы обеспечения адвокатской тайны, принципы правового равенства и доверительного характера данных отношений. Особое внимание уделено эффективности правового взаимодействия между адвокатом и доверителем, а также разработаны научно-практические предложения по совершенствованию их правового регулирования.

Ключевые слова: адвокат, доверитель, адвокатская тайна, правовые отношения, интересы доверителя, юридическая помощь, конфликт интересов.

Nurumov Dilshodbek Djumabaevich,

Acting Professor at Tashkent State University of Law,

PhD in Law

E-mail: d.nurumov@tsul.uz

DISTINCTIVE ASPECTS OF THE LAWYER'S RELATIONSHIP WITH THE CLIENT (PERSON UNDER PROTECTION)

ANNOTATION

This article analyzes the essence and content of the legal relationship between an advocate and a client, as well as their mutual rights and obligations. A comparative legal study of national and international regulatory acts governing legal practice has been carried out, and the theoretical and legal foundations of the advocate–client relationship have been examined. The paper discusses ethical and legal limitations in protecting the client’s interests, the mechanisms for ensuring advocate–client privilege, the principles of legal equality, and the trust-based nature of these relations. Special attention is given to the effectiveness of legal interaction between advocates and clients, and scientific-practical recommendations for improving the legal regulation of such relationships are proposed.

Keywords: advocate, client, advocate–client privilege, legal relations, client’s interests, legal assistance, conflict of interest.

So‘nggi yillarda advokatura institutini yanada takomillashtirish, inson huquqlarini ishonchli himoya qilishni yangi bosqichga ko‘tarish, advokatlarning huquqiy maqomini mustahkamlash hamda ularning vakolatlarini kengaytirish zarurati dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, advokatura tizimida hali ham o‘z yechimini topmagan ayrim muammolar – xususan, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning amaliy mexanizmlarini aniqlashtirish, ularning o‘zaro mas’uliyati va manfaatlar muvozanatini belgilash kabi jihatlar chuqur tahlilni talab etadi.

Amaldagi qonunchilikda advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy me‘yorlar belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda bu borada bir qator bo‘shliqlar va noaniqliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, vakolatlarning aniq chegaralanishi, advokatlik sirini saqlash kafolatlari hamda xizmat haqi (gonorar) bo‘yicha kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Shu bois, mazkur munosabatlarning huquqiy poydevorini yanada mustahkamlash, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda milliy normativ-huquqiy bazani takomillashtirish masalasi bugungi kunda ilmiy va amaliy dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida [1] mustahkamlab qo‘yilganidek, advokatura fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda korxonalar, muassasa va tashkilotlarga malakali yuridik yordam ko‘rsatishni o‘zining asosiy vazifasi deb biladi. Advokat esa qonunchilikda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan, yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassisdir. Advokatlik faoliyati “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga [2] muvofiq amalga oshiriladigan professional huquqiy faoliyat bo‘lib, uning asosiy maqsadi jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquq hamda erkinliklarini tiklash, ularni qonuniy himoya qilish va odil

sudlovni ta'minlashdan iboratdir. Ushbu faoliyatning o'ziga xos jihati shundaki, advokatlik amaliyoti tijorat maqsadida olib borilmaydi, ya'ni foyda olish emas, balki jamiyatda huquqiy himoya mexanizmlarini samarali amalga oshirishni ko'zlaydi. Shu sababli advokatlik tuzilmalari yoki alohida advokatlarning oladigan haqiqiy daromadlari o'z mohiyatiga ko'ra tadbirkorlik yoki boshqa tijorat faoliyatining natijasi emas, balki ko'rsatilgan yuridik xizmat uchun qonun asosida beriladigan mukofot sifatida e'tirof etiladi. Ishonch bildiruvchi shaxs esa o'zining buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash yoki qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida advokat xizmatidan foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Shu nuqtayi nazardan, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi o'zaro aloqalar huquqiy munosabatlar tizimiga kiradi va tabiiyki, ular qonun bilan tartibga solinadi.

Mazkur munosabatlarning huquqiy tabiati va mohiyatini to'liq anglash uchun, avvalo, "huquqiy munosabat" tushunchasining ilmiy mazmunini tahlil qilish zarur. Huquqiy munosabat – bu subyektlar o'rtasidagi, ularning subyektiv huquq va yuridik majburiyatlariga asoslangan, huquq normalari hamda aniq yuridik faktlar bilan belgilangan ijtimoiy aloqa shaklidir [3]. Bunday munosabatlarda, kamida ikki tomon ishtirok etib, ular o'zaro huquq va majburiyatlarni amalga oshiradilar. Advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatlar aynan shunday huquqiy aloqa ko'rinishida bo'lib, bu jarayonda advokat ishonch bildiruvchi shaxs bilan tuzilgan shartnoma asosida qonuniy, halol va vijdonan xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, ishonch bildiruvchi shaxs esa, o'z navbatida, advokatdan sifatli yuridik yordamni talab qilish huquqiga ega bo'ladi hamda ko'rsatilgan xizmat uchun haq to'lash majburiyatini bajaradi. Shu tarzda, bir tomonning huquqi boshqa tomonning majburiyatini vujudga keltiradi va (yoki) aksincha.

Qayd etish joizki, jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlar ham huquqiy tartibga solinmaydi. Biroq davlat va jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan eng muhim deb e'tirof etiladigan ayrim ijtimoiy munosabatlar, xususan advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy aloqalar, huquq normalari bilan tartibga solinadi. Shu jihatdan, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy-huquqiy xarakterga ega bo'lib, ularning tartibga solinishi demokratik huquqiy davlatning barqaror faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlarning markaziy jihatlaridan biri – advokat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordamning malakali huquqiy yordam sifatida e'tirof etilishidir. Bu, avvalo, advokatning oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi, qonunchilikda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan malakali mutaxassis ekanligi bilan izohlanadi. Shu bois advokat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordamning huquqiy mazmuni va sifati, ishonch bildiruvchi shaxsning qarindoshlari yoki huquqiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan boshqa shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan yordamdan tubdan farq qiladi.

Advokatlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra mustaqil professional faoliyat bo'lib, u boshqa tashkilotlar, davlat organlari yoki ularning xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan yuridik xizmat turlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu faoliyatda advokat ishonch bildiruvchi shaxsning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida unga yuridik maslahatlar beradi, uning nomidan arizalar, shikoyatlar, da'vo arizalari va boshqa hujjatlarni tayyorlaydi, shuningdek, sud va boshqa vakolatli organlarda ishonch bildiruvchi shaxs nomidan qatnashib, uning huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

Mazkur munosabatlarning muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, advokatning ishtiroki ishning turiga qarab o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Jumladan, jinoyat ishlarida advokat himoyachi sifatida ishtirok etib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlarini himoya qiladi; fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarida esa u ishonch bildiruvchi shaxsning vakili sifatida qatnashib, uning qonuniy manfaatlarini sud jarayonida ifoda etadi hamda himoya qiladi.

Advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning to'g'ri va puxta shakllantirilishi kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli holatlar va huquqiy ziddiyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur munosabatlarning barqarorligi, avvalo, advokatning kasbiy faoliyatida advokatlik etikasi qoidalariga qat'iy rioya etishi, o'z faoliyatini qonuniylik, halollik va professionallik tamoyillari asosida amalga oshirishi bilan uzviy bog'liqdir.

Advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi o'zaro huquqiy aloqalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Advokatura to'g'risida"gi Qonun, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun [4], shuningdek Fuqarolik kodeksi [5], Fuqarolik protsessual kodeksi [6], Jinoyat-protsessual kodeksi [7] hamda advokatura faoliyatiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, advokatlarning kasbiy odob me'yorlarini belgilab beruvchi "Advokatning kasb etikasi qoidalari" [8] mazkur munosabatlarning axloqiy-huquqiy asosini tashkil etadi. Ushbu qoidalar advokatlik faoliyatida halollik, mustaqillik, maxfiylik va ishonchlilik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash orqali advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar advokatura institutining huquqiy maqomini, advokatning kasbiy vakolatlarini, uning ishonch bildiruvchi shaxs bilan o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilab beradi hamda bu munosabatlarning qonuniy, barqaror va shaffof shaklda amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Advokatlik faoliyatida yuridik yordam ko'rsatish jarayonida advokat ishonch bildiruvchi shaxsga masala bo'yicha qonuniy asoslarda tushuntirishlar berishga, shuningdek, ushbu masalaning sudda qay tarzda hal etilishi ehtimoli haqida huquqiy izoh taqdim etishga haqlidir. Shu bilan birga, advokat tomonidan ma'lum bir natijani kafolatlash yoki masalani ma'lum yo'sinda hal qilib berishga va'da berish qonun bilan qat'iyan taqiqlanadi. Advokatning ishonch bildiruvchi shaxs bilan o'zaro munosabatlari "Advokatura to'g'risida"gi Qonun hamda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasida advokatlar uchun Advokatning kasb etikasi qoidalari O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II konferensiyasida 2013-yil 27-sentabrda qabul qilingan bo'lib, mazkur qoidalarining 11-bandiga muvofiq, advokat quyidagi xatti-harakatlarni sodir etishga haqli emas:

- ✓ ish bo'yicha ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) irodasiga zid pozitsiyani egallashga va unga qarshi harakat qilishga, advokatning himoya ostidagi shaxs bironing aybini o'z bo'yniga olib, o'zini ayblayotganligiga ishonchi komil bo'lgan hollar bundan mustasno;

- ✓ ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi) shaxs aybga iqror bo'lmagan hollarda, uning aybi isbotlanganligi to'g'risida oshkora bayonotlar berishga, shuningdek uni aybga iqror bo'lishga ko'ndirishga;

- ✓ advokatlik sirini ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) rozilgisiz oshkor etishga;

- ✓ o'zining real imkoniyatlaridan ortiqcha yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi topshiriqni qabul qilishga;

- ✓ o'z yordamining yuridik yordamga muhtoj shaxslarga majburan qabul qildirishga, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan shaxsiy aloqalaridan foydalangan holda, ularga ishni muvaffaqiyatli hal qilishni va'da qilish bilan, boshqa advokatlarning rolini kamsitish va boshqa nomunosib usullar bilan jalb qilishga;

- ✓ ish muhokamasi davomida jarayonning boshqa ishtirokchilari sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi va tahqirlovchi fikr bildirishga;

- ✓ advokat yuridik yordam ko'rsatuvchi shaxs sifatida ishtirok etayotganida nizo predmeti hisoblangan mulkni va mulkiy huquqlarni shaxsiy manfaatlari yo'lida har qanday usul bilan o'z nomiga yoki boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirish orqali egallashga;

- ✓ ish uchun zarur bo'lmagan hollarda va ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) rozilgisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni olish uchun harakat qilishga;

- ✓ advokatlik siri bilan bog'liq masalalar bo'yicha guvohlik ko'rsatmalari berishga;

- ✓ ish bo'yicha so'roq qilingan guvohlar, jabrlanuvchilar va ekspertlar bilan tergov va suddan tashqarida munozaraga kirishishga;

- ✓ jarayon ishtirokchilari yoki boshqa shaxslar haqida ish uchun zarur bo'lmagan, ularni obro'sizlantiradigan hujjatlarni talab qilishga va taqdim etishga;

✓ kelishuv bitimi tuzish davomida boshqa tarafdin olingan ma'lumotlardan jarayon davomida va jarayondan keyin mazkur tarafga qarshi foydalanishga.

Ko'rsatilgan holatlar advokatlik faoliyati va ishonch bildiruvchi shaxs bilan o'zaro huquqiy munosabatlar doirasida qat'iy man etilgan. Shu bilan birga, ishonch bildiruvchi shaxs tomonidan qonunchilik va kasb-etikasi qoidalariga zid bo'lgan iltimoslar bildirilgan taqdirda, advokat ularni bajarishga haqli emas, chunki advokatlik faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bu qonun ustuvorligi tamoyili hisoblanadi.

Advokatning ishonch bildiruvchi shaxs bilan muloqotida sabr-toqat, aniqlik va soddalashtirilgan tushuntirish uslubi muhim ahamiyatga ega. U ishning huquqiy mohiyatini, unga nisbatan qo'llaniladigan qonun normalarini va muqobil yechimlarning huquqiy oqibatlarini ishonch bildiruvchi shaxs tushunadigan tilda bayon etishi lozim. Masalani yakuniy tarzda hal etish yo'lini tanlash huquqi esa doimo ishonch bildiruvchi shaxsga tegishli bo'lib qoladi.

Advokatning kasbiy faoliyatida ishonch bildiruvchi shaxsga noto'g'ri umid uyg'otish yoki kutilayotgan natijaga erishish haqida va'da berish etik me'yorlarga zid hisoblanadi. Agar advokat tomonidan kasb-etikasi qoidalari yoki qonun talablarining buzilishi oqibatida ishonch bildiruvchi shaxsga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazilsa, bunday shaxs O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy yoki Oliy malaka komissiyasiga shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga ega. Malaka komissiyalari ushbu shikoyatni ko'rib chiqib, asosli deb topgan taqdirda, advokatga nisbatan quyidagi intizomiy choralarni qo'llashi mumkin:

- ogohlantirish (malaka komissiyasining qaroriga asosan);
- litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish;
- litsenziyaning amal qilishini tugatish.

Advokatlik faoliyatining qonuniy va mazmunan to'g'ri olib borilishi, eng avvalo, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning shartnomaviy asosda belgilanishiga bog'liqdir. Bu munosabatlar, odatda, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi fuqarolik-huquqiy shartnoma orqali tartibga solinadi va advokat hamda ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniq belgilab beradi.

Advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatlarda sirni saqlash hamda ishonchni shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'plab olimlar tomonidan ta'kidlangan. Richard J. Hunter va John H. Shannonning fikriga ko'ra, advokat-mijoz munosabatlarida sirni saqlash ishonchni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir, chunki mijoz o'z holatini to'liq ochishi va qonuniy maslahat olishi uchun advokatning konfidensiallik kafolatlariga ishonishi zarur [9]. Shu bilan birga, ular advokat-mijoz munosabatlarida manfaatlar to'qnashuvi (conflicts of interest) ishonch uchun jiddiy tahdid ekanini ham ko'rsatadilar [10], bu esa ishonch bildiruvchi shaxs va advokat o'rtasidagi ishonchning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Vladimir S. Kachiuri fikriga ko'ra, advokatlik sirini saqlash advokatning huquqiy ongi (legal consciousness) bilan bog'liq bo'lib, mijoz manfaatini himoya qilish va advokatning mustaqilligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [11]. Bu qarash ham dolzarb bo'lib, advokatlik faoliyatida etika va huquqiy ongning uyg'unligi ishonch bildiruvchi shaxs hamda advokat munosabatlarining ishonchli bo'lishida asosiy omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, Sergei A. Kovalev ta'kidlaganidek, advokatlik sirini saqlash va advokatning halolligi (integrity) o'zaro bog'liq bo'lib, mijoz ma'lumotlarini konfidensiallikni buzmay himoya qilish nafaqat huquqiy, balki axloqiy burch ham hisoblanadi. Sirni buzish jamoatchilik ishonchini suiste'mol qilishga olib keladi [12], shu bois advokatlik faoliyatida etika va qonunchilikning muvozanatli qo'llanilishi juda muhimdir.

O'zbekiston advokaturasida ishonch bildiruvchi shaxs va advokat o'rtasida ishonchni ta'minlash uchun sirni saqlash, nizolarni oldini olish va advokatning halolligini ta'minlash bo'yicha aniq mexanizmlar va etika qoidalari ishlab chiqilishi lozim. Bunda faqat qonun normasi bilan cheklanmasdan, xalqaro standartlar asosida kasb etika qoidalarining mazmunida ham nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.

Advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni yanada takomillashtirish hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida xorijiy davlatlarning

ilg'or tajribalarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rivojlangan demokratik tizimga ega mamlakatlarda advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslari, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari, ularning o'zaro mas'uliyati hamda kasbiy etika talablariga rioya etish amaliyoti biz uchun muhim o'rganish obyekti hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Germaniya Federativ Respublikasi va Yaponiya advokatura tizimlari alohida tahlilni talab etadi.

Masalan, Germaniya Federativ Respublikasida advokatura tizimi davlat va jamiyat o'rtasidagi o'ziga xos huquqiy vositachilik mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur tizimning asosiy xususiyatlaridan biri — advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga alohida e'tibor qaratilishidir. Germaniya huquq tizimida advokat tomonidan ishonch bildiruvchi shaxsga oid har qanday ma'lumotni sir saqlash majburiyati qat'iy tarzda qonun bilan mustahkamlangan. Ushbu sir saqlash majburiyatining buzilishi advokatlik faoliyatining eng jiddiy intizomiy huquqbuzarliklaridan biri sifatida baholanadi va u bo'yicha maxsus yurisdiksiya organlari tomonidan choralar ko'riladi. Germaniyada advokatlar ustidan intizomiy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus sud organlari mavjud bo'lib, ular "Anwaltsgerichtsbarkeit" deb ataladi. Ushbu tizimga "Anwaltsgericht" (Advokatlar sudi) va "Anwaltsgerichtshof" (Advokatlar oliy sudi) kiradi. Mazkur organlar advokatlarning kasbiy faoliyati doirasida yo'l qo'yilgan xatti-harakatlarini ko'rib chiqadi va intizomiy choralar qo'llaydi. Amaldagi tartibga ko'ra, advokatga nisbatan quyidagi sanksiyalar belgilanishi mumkin: ogohlantirish, hayfsan, jarima solish, shuningdek, bir yildan besh yilgacha muddat davomida odil sudlovning muayyan sohalarida vakil yoki himoyachi sifatida ishtirok etish huquqini cheklash.

Germaniya advokaturasining yana bir muhim jihati – advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmatlar uchun haq to'lash tartibi aniq normativ asosda tartibga solinganligidir. Bu borada "Advokatlarga haq to'lash to'g'risida"gi Qonun (Rechtsanwaltsvergütungsgesetz) [13] muhim huquqiy manba hisoblanadi. Mazkur qonunda advokatlik xizmatlarining turlari, to'lov miqdorlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari batafsil belgilab qo'yilgan. Ushbu normativ hujjat nafaqat advokatlik xizmatlari sifatini oshirishga, balki advokatlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Natijada advokatura institutining jamiyatdagi obro'-e'tibori ortadi va advokat-ishonch bildiruvchi shaxs munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy kelishmovchiliklarning oldi olinadi.

Germaniya advokatura tizimining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tajriba o'zining aniq normativ asoslari, kasbiy etika talablari va institutsional mustaqilligi bilan boshqa davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham samarali model bo'la oladi. Shu jihatdan, milliy qonunchiligimizda ham advokatlik xizmatlariga haq to'lash tartibini yanada aniq va shaffof belgilash, advokatlarning kasbiy mas'uliyatini kuchaytirish hamda advokat-ishonch bildiruvchi shaxs munosabatlarining huquqiy poydevorini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Yaponiyada ham advokat ishonch bildiruvchi shaxs bilan ishlash jarayonida qo'lga kiritgan har qanday ma'lumotni sir saqlash majburiyatiga egadir. Ushbu majburiyat qonunda belgilangan alohida holatlardan tashqari, advokatlik faoliyati tugaganidan keyin ham amal qiladi. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda advokat bir vaqtning o'zida ikkala tomon manfaatlarini himoya qila olmaydi; bu holatda u ishonch bildiruvchi shaxsga xizmat ko'rsatishni rad etishi yoki to'xtatishi shart. Har qanday ishonch bildiruvchi shaxs bilan huquqiy munosabatga kirishishdan avval "retainer agreement" (ya'ni shartnoma) imzolanadi, u advokat va ishonch bildiruvchi shaxsning aniq huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Yaponiyada advokatlarning ushbu talab va qoidalarga rioya qilishi, advokatlik sirini saqlashi va kasbiy etika normalariga amal qilishi ustidan Yaponiya Advokatlar Federatsiyasi nazorat olib boradi [14]. Ushbu tizim advokatura faoliyatining ochiqligi va professional mas'uliyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, Germaniya va Yaponiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, advokatlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun nafaqat kasbiy etikaga qat'iy rioya etish, balki advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning aniq tartibga solinganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi advokatura tizimida advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalasida bir qator muammolar mavjud. Avvalo, xizmat ko'rsatish shartlari va sir saqlash majburiyatiga oid huquqiy me'yorlarning yetarlicha aniq belgilab qo'yilmaganligi amaliyotda tushunmovchiliklar va ishonchsizlik holatlarini yuzaga keltirmoqda. Advokatlik faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi o'zaro ishonch, kasbiy sadoqat hamda axloqiy me'yorlarga rioya etish darajasiga bog'liq. Shu bois, advokatlarning sir saqlash majburiyati ushbu munosabatlarda eng muhim etik tamoyil sifatida mustahkamlanishi zarur.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar va xorijiy tajribalar — xususan Germaniya Federativ Respublikasi hamda Yaponiya advokatura tizimlari misolida — advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishning samarali mexanizmlari mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu tajriba O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniya amaliyotida advokatlik sirini buzganlik uchun qat'iy intizomiy javobgarlik choralari belgilangan bo'lib, yuridik xizmatlar uchun haq to'lash tartibi ham aniq normativ asosga ega. Yaponiyada esa advokatlik siri faqat faoliyat davomida emas, balki advokatlik munosabatlari tugagandan keyin ham saqlanishi qonuniy majburiyat sifatida belgilangan. Bu tajribalar advokatlik kasbining nufuzini, ishonchliligini va kasbiy intizomini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'rganish va tahlil natijalariga tayangan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

O'zbekiston Respublikasida advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlar huquqiy jihatdan "Advokatura to'g'risida"gi Qonun, Advokatning kasb etikasi qoidalari hamda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Nizomi orqali tartibga solingan. Biroq amaliyotda bu munosabatlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Quyidagi taklif va tavsiyalar aynan ushbu ehtiyojdan kelib chiqadi:

1. Amaldagi qonunchilikda advokatlik sirini oshkor etish uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, ushbu norma axborot texnologiyalari rivojlanishiga mos ravishda kengaytirilishi zarur. Jumladan, "advokatlik siri" tushunchasining huquqiy doirasi qayta ko'rib chiqilib, elektron hujjatlar, onlayn maslahatlar va raqamli aloqa kanallaridagi maxfiylikni himoyalovchi aniq normalar bilan boyitilishi lozim.

2. O'zbekiston advokaturasi uchun axloqiy-me'yoriy asoslarni ishlab chiqishda MDH davlatlari va Yevropa advokatlar assotsiatsiyalarining tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Advokatlar palatasi (FPA RF) va Germaniya Advokatura kodeksi (BRAK)dagi etik standartlarni o'rganib, "Advokatning kasb etikasi kodeksi"ni qabul qilish maqsadga muvofiq.

3. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs bilan yoki boshqa manfaatdor shaxslar bilan bo'lgan aloqalarida yuzaga keluvchi manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, baholash va oldini olish bo'yicha norma kiritish zarur.

4. Amaliyotda yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma)lar turlicha yondoshuv asosida tuzilmoqda. Shu sababli yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma)larni yagona standart asosida tartibga solish maqsadida Advokatlar palatasi tomonidan namunaviy shartnoma shaklini ishlab chiqish, unda ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlarini himoya qiluvchi va advokatlik etikasiga mos qoidalarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

5. Advokatlik faoliyatida raqamli vositalar (elektron pochta, onlayn maslahatlar, raqamli hujjat almashinuvi) keng qo'llanilayotganligini hisobga olib, kasb etikasining yangi yo'nalishi – "raqamli etika"ni shakllantirish lozim. Bu orqali internetda advokatning professional xulq-atvori, raqamli muhitdagi axborot xavfsizligi va ishonch bildiruvchi shaxsga oid ma'lumotlarni sir saqlanishini ta'minlash yuzasidan qoidalar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasida advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning institutsional va axloqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kasb etikasi qoidalarni xalqaro tajribaga uyg'unlashtirish, raqamli xavfsizlikni

ta'minlash orqali advokatura institutining nufuzi yanada ortadi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning malakali yuridik yordamga bo'lgan ishonchini ortishiga zamin yaratadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Constitution of the Republic of Uzbekistan) // <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi 349-I-son Qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan No. 349-I "On Advocacy" adopted on December 27, 1996) // <https://lex.uz/ru/docs/-54503>
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b. (Odilqoriyev Kh.T. Theory of State and Law. Textbook. – Tashkent. «Adolat», 2018. – 528 p.)
4. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi 721-I-son Qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan No. 721-I "On Guarantees of Advocacy and Social Protection of Lawyers" adopted on December 25, 1998) // <https://lex.uz/docs/-29626>
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (Civil Code of the Republic of Uzbekistan) // <https://lex.uz/docs/-111189>
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan) // <https://lex.uz/docs/-3517337>
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan) // <https://lex.uz/docs/-111460>
8. Advokatning kasb-etikasi qoidalari (Rules of Professional Ethics of a Lawyer) // <https://nrm.uz/contentf?doc=549533>
_advokatning_kasb_etikasi_qoidalari_(o%E2%80%98advokatlar_palatasining_ii_konferenciyasining_27_09_2013_y_qaroriga_silova) &products =1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana
9. Hunter R.J., Shannon J.H., Assessing Confidentiality in the Lawyer-Client Relationship: A Client Perspective, *Advances in Social Sciences Research Journal*, 2022. <https://journals.scholarpublishing.org/index.php/ASSRJ/article/view/13320>
10. Hunter R.J., Shannon J.H., Avoiding Common Conflicts of Interest in the Lawyer-Client Relationship, *Advances in Social Sciences Research Journal*, 2022. <https://journals.scholarpublishing.org/index.php/ASSRJ/article/view/13386>
11. Kachiuri V.S., Attorney-client privilege as an element of lawyer's legal consciousness, *Academic Council*, № 7, 2023. <https://panor.ru/en/articles/advokatskaya-tayna-kak-element-pravosoznaniya-advokata/94804.html>
12. Kovalev S.A., The integrity of the lawyer if necessary to comply with attorney-client privilege, *Tom 12*, № 1, 2019. https://journals.eco-vector.com/2072-3164/article/view/530366/en_US
13. Gesetz über die Vergütung der Rechtsanwälte (Rechtsanwaltsvergütungsgesetz - RVG) // <https://www.gesetze-im-internet.de/rvg/>
14. <https://www.nichibenren.or.jp/en/>

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000